



Yorqinjon ODILOV,
O'zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti yetakchi ilmiy xodimi,
filologiya fanlari doktori

PUBLITSISTIK MATN VA LEKSIK TARAQQIYOT

Annotatsiya. Mazkur maqola o'zbek tili publitsistik uslubi leksik taraqqiyotini o'rganishga bag'ishlangan. Unda leksik taraqqiyot yangi o'zlashmalarning kirib kelishi, o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida yangi so'zlarning yasalishi, kalkalash va eskirgan so'zlarning qayta faollashuvi misolida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: publitsistik uslub, leksik taraqqiyot, so'z o'zlashtirish, ichki manbalar, kalkalash, faollashgan so'zlar.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению лексического развития публицистического стиля узбекского языка. Лексическое развитие раскрыто на примере анализа новых заимствований, словообразования на основе внутренних возможностей узбекского языка, калькирования и устаревших слов.

Ключевые слова: публицистический стиль, лексическое развитие, заимствование слов, внутренние источники, калькирование, активизированные слова.

Annotation. This article is devoted to the study of the lexical development of the journalistic style of the Uzbek language. The lexical development is revealed by the example of the analysis of new borrowings, word formation based on the internal capabilities of the Uzbek language, tracing and obsolete words.

Key words: journalistic style, lexical development, borrowing, internal sources, tracing, activated words.

Yangi so'z hayotning talabi bilan yuzaga keladi. Bu talab jamiyatning, shu bilan aloqador holda ongning taraqqiyotiga bog'liq. Ayni paytda, mazkur talab turmushda paydo bo'lgan biror yangilikni, masalan, yangi predmetni atash uchun yangi so'z yaratish yoki boshqa tildan shu yangilikning nomini ham olishdangina iborat emas, balki u hamma yangiliklar, dinamika, hamma o'zgarishlarning tug'ilish manbayidir.¹ Muayyan til leksikasidagi taraqqiyot shu tilning barcha vazifaviy uslublarida kuzatiladi, har bir vazifaviy uslub leksik taraqqiyotni o'ziga xos tarzda namoyon etadi. Ayniqsa, publitsistik uslubning davr bilan hamqadamligi bois leksik o'zgarishlar ko'pincha ayni uslubda tezroq aks etadi, bu uslubga xos davriylik va muntazamlik sifati yangi tushunchalar hamda ularning nomlarini til egalari tafakkurida barqarorlashtiradi.

Til lug'at tarkibining turmushdagi o'zgarishlarga monand bunday rivojlanishi, ayniqsa, davlat yoki jamiyat hayotida tub burilish yuz bergandan keyin tezroq, ko'proq va aniqroq kuzatiladi. Leksikaga yangi o'zlashmalarning kirib kelishini N.S.Valgina shunday tushuntiradi: XX asrning 90-yillaridan boshlab katta miqdordagi o'zlashmalarning rus tiliga kirib kelishi yangi narsa, hodisa va tushunchalarni nomlash, mavjud tushunchalarni farqlash, tushunchalarni maxsuslashtirish zaruriyati bilan bog'liq.² Shu ma'noda mustaqillik arafasi va undan keyingi davrda o'zbek tiliga o'zlashgan va o'zlashayotgan so'zlar, so'zlarning yangi leksik ma'nolarga ega bo'lishi, so'z ma'nolaridagi kengayish va torayish hodisalarini publitsistik matnlarda ko'plab kuzatish mumkin. Ushbu lisoniy o'zgarishlarning paydo bo'lish omillarini aniqlash, izohlash va lozim deb topilganlarini leksikografik manbalarda qayd etish leksikografiyaning dolzarb vazifalaridan biridir.

O'zbek tilining chorak asrdan ortiq mustaqil taraqqiyot davrida salmoqli miqdordagi yangi so'zlar o'zlashdi. O'zbek tili leksikasida paydo bo'lgan o'zlashma so'zlarning aksariyati yangi tushunchalarning nomi bo'lib, bunday so'z o'zlashtirish milliy tilni boyitishgagina xizmat qilmoqda. Masalan, *agrobank, agrofirma, android, audiovizual, aviakompaniya, avtogol, banner, biznes-klub, bowling, brend, distribyutor, drayver, fanklub, feysbuk, fotoshop, genofond, gigabayt, gril, imij, innovatsiya, jakuzi, lavash, login, logistika, logotip, marker, megabayt, megapolis, menejer, minibank, noutbuk, offshor, panel, pedtexnologiya, piksel, pinkod, planshet, promouter, reproduktiv, rouming, selfi, server, skype, skuter, spam, sparring, trafik, terminal, tok-shou, trening, xaker, xettrik* singari o'zlashmalar va ular ifodalaydigan tushunchalar o'zbek xalqiga xos olamning konseptual va lisoniy manzaralarini boyitgan. Ular o'zbek tilining turli vazifaviy uslublarida, masalan, *feysbuk, fotoshop, gigabayt, gril, lavash, login, megabayt, noutbuk, piksel, pinkod, planshet, promouter, reproduktiv, rouming, selfi, tok-shou, trening, xaker, xettrik* kabilar so'zlashuv va publitsistik uslublarida, *antiplagiat, antroposentrik, antroposentrizm, diskurs, konsept* kabilar ilmiy uslubda, *antropogen, audiofayl, derbi, domen, multimedia, onlayn, pedtexnologiya, videokonferensiya, videoselektor* kabilar publitsistik uslubda faol qo'llanmoqda. Keltirilgan o'zlashma so'zlar yangi bo'lgani uchun "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham qayd etilmagan. Endilikda ushbu so'zlarga maqbul izohlar berish kerak.

Publitsistik va boshqa uslublarda qo'llanayotgan o'zlashmalarning ma'lum bir qismi o'zbek lingvomasadaniyatida yangi tushunchalarning nomi sifatida paydo bo'lmagan, balki, N.S.Valgina aytganidek, mavjud tushunchalarni farqlash, biror tushunchani maxsuslashtirish zarurati tufayli kirib kelgan. Masalan, keyingi paytlarda publitsistik uslubda *innovatsiya* so'zi juda faollashdi. Mamlakatda innovatsion faoliyatni rivoj-

lantirishga ko'maklashuvchi alohida vazirlik tashkil etildi. Aslida *innovatsiya* so'zi "yangilik" degan ma'noni bildiradi. Xo'sh, unda shu o'zlashma o'rniga o'zbekcha *yangilik* so'zi qo'llansa bo'lmasmidi? Bizningcha, *innovatsiya* so'zi tushunchalarni farqlash zaruriyati tufayli ham o'zbek tiliga kirib keldi. Negaki, o'zbekcha *yangilik* so'zi, umuman, "yangi holat, yangi ekanlik"ni yoki "ilgari ma'lum bo'lmagan, yaqindagina paydo bo'lgan narsa yoki hodisa; yangi xabar, ma'lumot"ni bildiradi xolos. *Innovatsiya* so'zi esa "bozor talab qiladigan mahsulotlarning sifati va samaradorligini oshirish uchun joriy etilgan yangilik" ma'nosida kirib keldi. Ammo publitsistik matnlarda qo'llana boshlagan *rieltor* (*makler* so'zi ham) so'zi haqida bunday deb bo'lmaydi. Agar mazkur holatga milliy tilni imkon qadar sof saqlash nuqtayi nazaridan yondashadigan bo'lsak, *rieltor* (*makler* so'zi ham) so'zining rasmiy uslubda, xususan, yuridik mazmundagi matnlarda ishlatilishi o'zini oqlamaydi. Vaholanki, mazkur olinma so'zning o'rniga "savdo-sotiqda oluvchi bilan sotuvchi o'rtasida vositachilik qiluvchi, molga narx qo'yib, ularni kelishtiruvchi kishi" ma'nosini ifodalaydigan *dallo* so'zini qo'llash mumkin edi. *Rieltor* (*makler* so'zi ham) so'zi anglatadigan ma'no *dallo* so'zidagi ayni ma'no bilan bir xil bo'lgani sababli o'zbek xalqiga xos olamning konseptual manzarasini ham, lisoniy manzarasini ham yangi tushuncha bilan boyitmagan. *Avialayner*, *adapter* so'zlari haqida ham shunday deyish mumkin.

Shunday holatlar bo'ladiki, o'zlashma so'z ifodalaydigan tushunchani o'zlashtiruvchi tilda ifodalashi mumkin bo'lgan birlik bo'ladi, biroq o'zlashma ham qabul qilinadi. Ilmiy uslubda ko'proq kuzatiladigan bunday holat tushunchani maxsuslashtirish zaruratidir. Masalan, tilshunoslikda *konsept* termini bor va u hozirgi tilshunoslikning eng faol terminlaridan biridir. *Konsept* termini bir qarashda o'zbek tilidagi *tushuncha* so'ziga teng keladi, lekin ushbu termin bildiradigan lingvistik mohiyatni *tushuncha* so'zi namoyon eta olmaydi, chunki har ikki so'z bir-biridan umumiy qo'llanishga egaligi va maxsuslashganligi bilan farq qiladi: *tushuncha* so'zi "umuman, narsalar, hodisalar haqidagi tasavvur"ni, *konsept* termini fanning biror sohasiga oid tushunchalarni bildiradi. Tilshunoslar shu jihadni e'tiborga olgan holda *konsept* terminini qo'llaydilar. Demak, o'zlashtiruvchi tilda maqbul muqobili bor chet so'zni o'zlashtirish tushunchalarni maxsuslashtirish zarurati bilan bo'ladi va bu ko'proq ilmiy uslubda o'zini oqlaydi.

Globalashuv davri o'zbek tili publitsistik uslubining leksik taraqqiyotida ichki imkoniyatlar asosida yasalgan so'zlar alohida o'rin tutadi. Bu davrda ham morfologik va sintaktik usullar bilan so'z yasash ko'p kuzatiladi. Publitsistik uslubga oid matnlarni ko'zdan kechirish natijasida shu ma'lum bo'ldiki, *-chi*, *-lik*, *-noma*, *-dosh*, *-ma*, *-mand*, *-li*, *-iy*, *-viy*, *-bop*, *no-*, *-la*, *-lan*, *-lash(uv)*, *-lashtirish* singari qo'shimchalar yordamida ko'plab so'zlar yasalgan. Masalan, *dasturchi*, *yo'riqchi*, *muqobillik*, *shaffoflik*, *ochiqlik*, *taqdimnoma*, *raqobatdosh*, *qurilma*, *tuzilma*, *ishlanma*, *hojatmand*, *ehtiyojmand*, *dasturiy*, *tijoriy*, *idoraviy*, *investitsiyaviy*, *shartnomaviy*, *sarmoyaviy*, *sanoatbop*, *qurilishbop*, *nomoddiy*, *notijorat*, *nodavlat*, *dasturlash*, *kreditlash*, *litsenziyalash*, *integratsiyalashish*, *globalashuv*, *legal-lashtirish*, *liberallashtirish*, *mahalliyashtirish* singari yangi

so'zlar bugun barqaror qo'llanishga o'tdi. Ularni publitsistik uslubdagi eng faol so'zlardan deyish mumkin.

Globalashuv davri o'zbek tili publitsistik uslubi-ning leksik taraqqiyoti, ayniqsa, sintaktik usulda so'z yasashning faollashgani bilan ajralib turadi. Bugun jurnalistlar publitsistik matnlarda allaqachon o'z o'rnini topib bo'lgan so'zlardan unumli foydalanmoqdalar. Bunday qo'shma so'zlarni tarkibiga ko'ra quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

1) o'zbekcha+o'zbekcha tarkibli yasalmalar: *ko'p-kunlik* (musobaqa), *umumjamo*, *umumjahon*, *umum-milliy*, *umume'tirof*, *umumqabul qilingan* kabi;

2) o'zbekcha+o'zlashma tarkibli yasalma: *aksilterror*.

3) o'zlashma+o'zbekcha tarkibli yasalmalar: *aviaqatnov*, *audiokitob*, *audiomatn*, *videomuloqot*, *interfaol*, *mediamatn*, *mediamadaniyat*, *mediasavodxonlik*, *bioxilma-xillik*, *bioyong'i*, *transchegaraviy*, *transmilliy* kabi.

Ayniqsa, o'zlashma+o'zbekcha tarkibli yasalmalar globalashuv davri o'zbek tili publitsistik uslubi leksik rivojining asosiy lisoniy xususiyatlarini o'zida namoyon etadiki, bu ko'plab yangi tushunchalarning o'zbek tilida paydo bo'lishi bilan bog'liq. Shunday o'zlashma komponentlar borki, ularning ishtirokida 10 tagacha so'z yasalgan. Masalan, ommaviy axborot vositalarining umumiy nomi bo'lgan *media* tarkibli *mediabozor*, *medialoyiha*, *mediavosita*, *mediamadaniyat*, *mediamatn*, *mediamahsulot*, *mediasavodxonlik*, *mediatalim*, *mediatuzilma*, *mediatur* yasalmalari ommaviy axborot vositalari tilida faol qo'llanmoqda. Albatta, vaqt o'tishi bilan ushbu so'zlar o'zlari ifodalaydigan hodisalarning o'zbeklar turmushida qay darajada kerakligiga ko'ra yo tilning doimiy fondida qoladi, yo tildan chiqib ketadi.

Globalashuv davri leksikasida muayyan termin-element orqali hosil qilingan hamda allaqachon matbuot tilidan joy olib ulgurgan ko'plab yangi so'zlarni uchratish mumkin. Masalan, *avia* tarkibli *aviabozor*, *aviakorxon*, *aviatashuv*, *aviaxodim*, *aviaqatnov*; *audio* tarkibli *audiomatn*, *audiokitob*; *bio* tarkibli *bioyong'i*, *bioxilma-xillik*; *mikro* tarkibli *mikroqurilma*; *veb* tarkibli *vebsahifa*, *vebdasturchi*, *vebilova*, *vebishlanma*, *vebmanzil* kabi so'zlar ham globalashuv davri leksikasining mahsulidir.

Globalashuv davri publitsistik uslubi rivojida okkazonal yasalmalarning ham alohida ishtiroki bor. Ma'lumki, bunday yasalmalar o'zi namoyon bo'lgan nutqiy vaziyat uchungina zarur bo'ladi, ya'ni okkazonal tabiatli bo'ladi. Okkazonal so'zlar yuzasidan o'zbek tilshunosligida tadqiqotlar olib borilgan.³ Okkazonal so'z o'zi ishtirok etgan matndagi muhim bo'lak bo'lib, u shu kontekstdagi fikrning asosiy, dolzarb nuqtasini ifoda etadi. Okkazonal so'z ana shu maqsadda yaratiladi. Masalan, "Xalq so'zi" gazetasida "Mo'ynoqqa hayot qaytmoqda" sarlavhali maqolada Orol dengizi fojiasi va uni bartaraf etish borasidagi ishlarga to'xtalinar ekan, muallif *Orolqum* so'zini ishlatadi. Sintaktik usulda yasalgan mazkur so'z maqoladagi asosiy muammoni namoyon qilgan. Muallif *Orolqum* so'zini qo'llash bilan dengizning qumlikka aylanganini ta'kidlagan.

Globalashuv davri publitsistik uslubining leksik rivojida kalkalash natijasida hosil bo'lgan birliklar ham muhim. Kalkalash shunchaki so'z hosil qilish emas,

balki o'zlashtiruvchi xalqqa xos olamning konseptual hamda lisoniy manzaralarini boyituvchi, tilning ichki imkoniyatlarini kengaytiruvchi omildir. Bu omilning publitsistik uslubda amal qilishini ko'rsatishdan oldin kalkalash va kalka terminlarining mohiyatiga to'xtalish lozim. Akademik Azim Hojiyev kalkalash hodisasi va kalkalarning lingvistik tabiatini quyidagicha tushuntiradi: "Kalkalash. O'zga tilning leksik, frazeologik birliklarining modellari asosida o'z til unsurlaridan foydalanib, yangi so'z yoki frazeologik birliklar hosil qilish". "Kalkalar. O'zga til materialidan qismma-qism nusxa olish yo'li bilan hosil qilingan so'z yoki boshqa til birligi. Kalkalar leksik, semantik, frazeologik bo'lishi mumkin"⁴.

Kalkalar ham yangi tushunchani nomlash zarurati bilan yasaladi. Tabiiyki, yangi tushunchalar bir tilga boshqa tildan o'tadi. Demakki, o'zga tildagi tushunchani o'z tilida ifodalash uchun kalkalashdan foydalaniladi. O'zbek tili leksikasining kalkalar hisobiga boyishida ingliz va rus tillarining ijobiy ta'siri seziladi. Xususan, ingliz tilidagi "Master Class" birligi o'zbek tiliga mahorat darsi ko'rinishida kalkalab olingan. Yoki ruscha "уполномоченные государственные органы" birligi vakolatli davlat organlari tarzida kalkalangan. Videokuzatuv so'zi ham "видео наблюдение" so'zining kalkasidir.

Zahmatkash lug'atshunos olim T.Aliqulov kalkalash natijasida ham til boyishini e'tirof etar ekan, uni ma'no taraqqiyoti sifatida baholamaslik kerakligini, chunki bunda yangi leksik ma'no emas, yangi so'z hosil bo'lishini aytadi.⁵ Bunday baho bir tomondan o'zini oqlaydi, biroq boshqa tomondan kalkalash hodisasining mohiyatini to'la aks ettirmaydi. Negaki, publitsistik uslubga doir matnlarda shunday kalkalar uchraydiki, ular yangidan hosil qilingan so'zlar emas, balki yangi ma'nolardir, ko'p ma'noli so'zning navbatdagi hosila ma'nolaridir.

Kalkalash hodisasi muayyan til birligi o'zga til lug'at tarkibida turgan paytda, ya'ni o'zga til birligi o'zlashtiruvchi tilga o'tmasdan oldingina emas, o'zlashtiruvchi tilga qabul qilingandan keyin ham yuz berishi mumkin. Masalan, 2000-yillarda rus tilidai *транспарентность* so'zi o'zbek tilida *transparentlik* shaklida qo'llanila boshladi. Mazkur so'z o'zbek tiliga faol o'zlashib ketmaganligi uchun *транспарентность* so'ziga maqbul kalka – *ochiqlik* so'zi tanlandi. Misollar: *Vazirlar Mahkamasi tomonidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash bo'yicha jamoatchilik kengashi shakllantirilgan*. ("O'zbekiston ovozi" gazetasi) *Bo'sh turgan obyektlarni sotishda ochiqlik va adolat tamoyillariga amal qilish zarur*. ("Ishonch" gazetasi)

Yoki 2000-yillarning boshida o'zbek tili publitsistik uslubida *antiterror* o'zlashmasi faol qo'llanila boshlan-

di. Keyinroq ayni so'zni kalkalash yo'li bilan *aksiterror* so'zi yasaldi va bu birlik publitsistik uslubda *antiterror* so'zi bilan yonma-yon qo'llanmoqda: *ShHTga a'zo davlatlar vakolatli organlari birgalikda o'tkazgan aksiterror mashg'ulotlari yakunlariga yuqori baho berildi*. ("Xalq so'zi" gazetasi) *Tomonlar ikki mamlakat huquqni muhofaza qiluvchi organlari va xavfsizlik xizmatlarining qo'shma antiterror mashg'ulotlarini o'tkazishni davom ettiradilar*. ("Xalq so'zi" gazetasi) Shuningdek, dastlab *mikrokredit* tarzida o'zlashtirilgan so'z endilikda *mikroqarz* sifatida kalkalandi.

O'zbek tili publitsistik uslubining leksik taraqqiyoti haqida so'z borar ekan, albatta, bu uslubda qo'llanilayotgan qayta faollashgan so'zlarga to'xtalish lozim. Chunki qayta faollashgan so'zlarning asosiy qismi ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar bo'lib, ularning faol qo'llanish o'rni publitsistik matnlardir. Bunda ikki holatni farqlash maqsadga muvofiq:

1. Eskirgan so'zlarning avvalgi ma'nolarida qayta faollashuvi.

Avvalgi ma'nosida qayta faollashuv *hisobdor* so'zida yuz berdi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *hisobdor* so'zi *eskirgan* pometasi ostida "o'z ishlari haqida biror kimsa yoki tashkilotga hisobot berib turadigan" (5-jild. 535-bet) deb izohlangan. Quyidagi jumlada *hisobdor* so'zi ayni ma'nosida voqelangan: *Milliy qonunchiligimizga ko'ra viloyatlar va Toshkent shahar hokimi Prezident va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordir*. ("O'zbekiston ovozi" gazetasi). Yoki rus tilidan o'zlashgan *zona* so'zi *erkin industrial zona, kichik sanoat zonas*i singari birikmalar tarkibida "hudud" ma'nosida qo'llanmoqda.

2. Eskirgan so'zlarning yangi ma'nolarda qayta faollashuvi.

Yangi ma'noda qayta faollashgan so'zlar sirasiga *vazir, devon, hokim, farmon, karvonsaroy* kabi so'zlarni kiritish mumkin. Masalan, *vazir* so'zi til tarixining avvalgi davrlarida "podshoh va xonlar saroyidagi oliy mansab egasi"⁶ ma'nosini anglatgan. Sobiq Ittifoq davrida butunlay qo'llanishdan to'xtagan. 1991-yildan boshlab yangi tushunchani anglata boshladi – "mamlakatda muayyan tarmoq faoliyatini boshqaruvchi shaxs" (*Sog'liqni saqlash vaziri, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri*) ma'no ifodasi uchun qo'llanishga o'tdi.

Xullas, o'zbek tili publitsistik uslubining leksik taraqqiyoti yangi o'zlashmalarning paydo bo'lishi va tilda faollashuvi, tilning ichki imkoniyatlari asosida yangi so'zlarning yasalishi hamda eskirgan so'zlarning qayta faollashuvi fonida yuz bermoqda.

¹O'zbek tili grammatikasi. I jild. Morfologiya. – Toshkent: Fan, 1975. 9-bet.

²Валгина Н.С. Активные процессы в современном русском языке. – Москва: Логос, 2003. – С. 111.

³S.Toshaliyeva. O'zbek tilida okkazonal so'z yasalishi: Filol.fan.nomz. ... diss.avtoref. – Toshkent, 1998. 25-bet; O.To'xtasinova. O'zbek tilida leksik okkazonalizmlar va ularning badiiy-estetik xususiyatlari. Filol.fan.nomz. ... diss.avtoref. – Toshkent, 2007. 25-bet.

⁴A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 47-bet.

⁵T.Aliqulov. O'zbek tilida polisemantik otlar. ND. – Toshkent, 1966. 44-bet.

⁶O'zbek tilining izohli lug'ati. I jild. – Moskva: Rus tili nashriyoti, 1981. 170-bet.